

## OILADA BOLA TARBIYASIDA OTA-ONALARNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI, O‘RNI HAMDA AHAMIYATI

*Yuldasheva Nilufar Raximberdiyevna*

*Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani 30-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilada bola tarbiyasida ota-onalarning psixologik vazifalari, ularning farzand shaxsining shakllanishidagi o‘rni hamda ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muhitning bolaning ruhiy rivojlanishiga ta‘siri va ota-onalarning tarbiyaviy mas‘uliyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Oila, bola tarbiyasi, ota-ona, psixologik rivojlanish, oilaviy muhit, tarbiya, mas‘uliyat, muloqot, shaxs shakllanishi, ma‘naviy qadriyatlar.

### KIRISH

Oila inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bola dunyoga kelgan ilk kunlardan boshlab oila muhiti ta‘sirida ulg‘ayadi, hayotiy qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli ota-onalar farzand tarbiyasida nafaqat moddiy, balki psixologik jihatdan ham katta mas‘uliyatga ega. Ota-onalarning asosiy psixologik vazifalaridan biri bolada xavfsizlik va ishonch hissini shakllantirishdir. Mehr-muhabbat, e‘tibor va g‘amxo‘rlik muhitida ulg‘aygan bola o‘zini qadrlangan va himoyalangan his qiladi. Bu esa uning ruhiy barqarorligi hamda sog‘lom shaxs sifatida rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bolaning emotsional rivojlanishida ota-onalarning o‘rni beqiyosdir. Farzandning his-tuyg‘ularini tushunish, uni tinglash va qo‘llab-quvvatlash orqali ota-onalar bolada ijobiy o‘zini baholash hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantiradilar. Aksincha, doimiy tanbeh, e‘tiborsizlik yoki haddan tashqari qattiqqo‘llik bolada qo‘rquv, xavotir va ishonchsizlik hissini yuzaga keltirishi mumkin. Ota-onalarning yana bir muhim vazifasi — farzandga ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlarini o‘rgatishdir. Bolalar ko‘pincha kattalarning

xatti-harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladilar. Shu bois ota-onalar o‘zlarining muomala madaniyati, mas’uliyati va odob-axloqi bilan farzandlariga namuna bo‘lishlari zarur.

Oiladagi sog‘lom psixologik muhit bolaning intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning ta’limga bo‘lgan e’tibori, kitobxonlikka rag‘batlantirishi va mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlashi bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Farzand tarbiyasida ota va onaning o‘zaro hamjihatligi ham muhim omil hisoblanadi. Tarbiya masalasida yagona yondashuvning mavjudligi bolada barqaror dunyoqarash va ijobiy xulq-atvor shakllanishiga yordam beradi. Oiladagi nizolar va ziddiyatlar esa bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Maktab va oila hamkorligi ham bola tarbiyasining muhim tarkibiy qismidir. Ota-onalar pedagoglar va psixologlar bilan hamkorlik qilgan holda farzandning ta’lim va tarbiya jarayonidagi yutuq hamda muammolarini o‘z vaqtida aniqlashlari va zarur choralarni ko‘rishlari mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlodning barkamol bo‘lib voyaga yetishi, avvalo, oiladagi tarbiya tizimiga bog‘liq. Oila bolaning birinchi tarbiya maskani bo‘lib, unda shaxsning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va hayotiy qadriyatlari shakllanadi. Shu sababli ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Farzand tarbiyasi nafaqat moddiy ta’minot, balki ma’naviy, axloqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ham talab etadi. Ota-onalar farzandlariga mehr-muhabbat, e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish orqali ularda sog‘lom ruhiy muhitni shakllantiradilar. Bola o‘zini oilada qadrlangan va himoyalangan his qilganida uning shaxsiy rivojlanishi yanada samarali kechadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning farzand hayotiga befarq bo‘lishi, nazoratning sustligi yoki haddan tashqari qattiqqo‘llik bolalarda turli psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, o‘ziga ishonchsizlik, agressivlik, xavotirlanish va xulq-atvordagi og‘ishlar shular jumlasidandir.

Farzand tarbiyasida ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish muhim vazifalardan biridir. Tarbiyaning zamonaviy usullarini bilish, yosh davrlari xususiyatlarini hisobga olish va bolalar bilan samarali muloqot o‘rnatish ota-onalarning tarbiyaviy faoliyatini yanada samarali qiladi. Ta’lim muassasalari va oilaning hamkorligi ham tarbiya

jarayonining muhim omili hisoblanadi. Ota-onalarning maktab hayotida faol ishtirok etishi, sinf rahbari, pedagog va psixologlar bilan muntazam hamkorlik qilishi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktab amaliyotchi psixologi ota-onalar bilan ma'rifiy suhbatlar, seminar-treninglar va maslahatlar tashkil etish orqali ularning tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Bu esa oiladagi psixologik muhitni yaxshilash va farzand tarbiyasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, ota-onalarda farzandga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirishda milliy qadriyatlar, oilaviy an'analar va ma'naviy merosdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom oilada voyaga yetgan farzand kelajakda jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zosiga aylanadi.

Oilada ota-onalar ma'naviy boy e'tiborli va yuqori ma'lumotga ega bo'lsalar, shu darajada takomillashgan usul orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydi. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan so'zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo'lsa hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Farzand oilada tug'iladi, hayot haqidagi ilk bilim va ko'nikmalari shakllanadi. Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz kerak.

Kishining jamiyatdagi mavqeiga bog'liq bo'lmagan, ammo eng mas'uliyatli kasblardan biri – bu onalik va otalikdir. Ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi uchun nafaqat oila, balki jamiyat oldida ham javobgardirlar. Oila mustahkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand tarbiyasi jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy yetukligining muhim garovidir.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham o'g'il uylantirish, kelin tanlash hamda farzand tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratgan. Chunki davlatning qudrati sog'lom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq, millat va Vatan ravnaqi uchun xizmat qiladigan insonlar qo'lidadir. Ana shunday insonlar esa, avvalo, oilada tarbiyalanadilar. Bolalarning xulq-

atvoridagi kamchiliklar ko‘pincha ota-onalarning tarbiyadagi xatolari bilan bog‘liq bo‘ladi. Oila a‘zolarining, ayniqsa ota-onalarning ma‘naviy-axloqiy yetukligi va ma‘rifiy qarashlari farzand kamolotining muhim omillaridan biridir. Oila bolalarni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlovchi ilk maktab vazifasini bajaradi. Har bir ota-ona farzand tarbiyasidagi burch va mas‘uliyatini chuqur anglashi lozim.

Oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila a‘zolari o‘rtasidagi hamjihatlik, bola shaxsiga hurmat bilan yondashish, uni sevish va qadrlash, qat‘iy kun tartibini yo‘lga qo‘yish, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, undagi o‘zgarishlarni kuzatib borish hamda mustaqillik va tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash ota-onalarning pedagogik savodxonligidan dalolat beradi. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Shu bois ota-onalarning farzand tarbiyasi, ma‘naviy-axloqiy, ruhiy va jismoniy kamoloti uchun zarur bo‘lgan ijobiy ota-onalik ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borishlari katta ahamiyatga ega. Har bir ota-ona o‘z farzandining baxtli, ma‘rifatli va komil inson bo‘lib voyaga yetishini istaydi hamda bu yo‘lda tinimsiz harakat qiladi.

Shunday ekan, ta‘lim muassasalari, ota-onalar va mahalla hamkorlikda bolalar tarbiyasiga mas‘uliyat bilan yondashishlari zarur. Farzandlarimizning ta‘lim-tarbiyasiga bo‘lgan e‘tibor kelajagimizga bo‘lgan e‘tibordir. Yosh avlodning sog‘lom ulg‘ayishi, sifatli ta‘lim va to‘g‘ri tarbiya olishini ta‘minlash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Oila jamiyatning tayanchidir. Farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va yurt ravnaqiga daxldorlik hissi, avvalo, oilada va mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni aynan bugun tarbiyalanayotgan yosh avlodga bog‘liq. Qaysi oilada va qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha joyda farovonlik va taraqqiyot hukm suradi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlash kerakligi haqida turli fikrlar mavjud. Buyuk alloma Ibn Sino bola tarbiyasi ona qornidayoq boshlanishi lozimligini ta‘kidlagan. Darhaqiqat, oilaga, odob-axloqqa va ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor xalqimizning azaliy

qadriyatlaridan biridir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan maqol ham farzand tarbiyasining naqadar muhim ekanligini ifodalaydi.

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona o‘zining har bir harakati, muomalasi va odob-axloqi bilan bolaga namuna bo‘lishi kerak. Chunki bola tabiatan taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, yolg‘onchilik va salbiy xatti-harakatlar bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, nosog‘lom muhitni yuzaga keltiradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi alohida o‘rin tutadi. Qo‘pol muomala, haqorat yoki jismoniy jazo bolaning ruhiyatiga salbiy ta‘sir etadi. Natijada, uning shaxs sifatida shakllanishida turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa jamiyat ma‘naviyatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Albatta, farzand tarbiyasi murakkab va mas‘uliyatli jarayondir. U ota-onadan doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni, pedagogika, psixologiya, etika va boshqa sohalarga oid bilimlarni egallab borishni talab qiladi. Odatda o‘g‘il bolalar tarbiyasida otaning, qiz bolalar tarbiyasida esa onaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Biroq har ikkala ota-onaning ham tarbiyadagi ishtiroki muhimdir. Bola tarbiyasida natijani ko‘rishga shoshilmaslik kerak. Hayotining dastlabki yillarida bola mehr, e‘tibor va ijobiy namunalarga ko‘proq ehtiyoj sezadi. Aynan shu davrda sog‘lom oilaviy muhit yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Oilada otaning loqaydligi ko‘pincha salbiy oqibatlariga olib keladi. Loqaydlik bolaning nazoratsiz qolishiga va tarbiyadagi kamchiliklarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. O‘smirlik davrida esa talabchanlik, intizom va to‘g‘ri yo‘naltirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bola yaxshilik va yomonlikni ajrata boshlaydi, mas‘uliyat hissi shakllanadi. Ba‘zan onalar farzandining xato va kamchiliklarini otadan yashirishga harakat qiladilar. Biroq bunday holat bolaning o‘z xatolarini anglamasligiga va mas‘uliyatsiz bo‘lib ulg‘ayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli ota-ona tarbiya masalasida o‘zaro hamkorlik qilishi zarur.

Mehr-muhabbat berishda ham me‘yor saqlanishi lozim. Bolaning barcha istaklarini so‘zsiz bajarish yoki uning har qanday xatti-harakatini ma‘qullash to‘g‘ri tarbiya usuli emas. Ortiqcha erkalash mas‘uliyatsizlikni yuzaga keltirishi mumkin. Aksincha, oqilona mehr va e‘tibor bolada faollik, mustaqillik va mas‘uliyat tuyg‘ularini

rivojlantiradi. Ayniqsa, bolalik davrida farzand qalbi nihoyatda nozik va ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli unga mehr ko'rsatish, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va bolalik davrini mazmunli o'tkazish muhimdir. Diniy ta'limotlarda ham ota-onalarning farzandlariga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyati alohida ta'kidlanadi. Muhammad (s.a.v.) shunday deganlar: "Farzandlaringizga ta'lim bering, chunki ular sizning zamoningiz uchun emas, balki o'z zamonlari uchun tug'ilganlar."

Tarbiyada eng samarali vositalardan biri mehr va shirinso'zlikdir. Ta'lim va tarbiyada qo'pollik hamda zo'ravonlikdan foydalanish tavsiya etilmaydi. Chunki majburlash orqali berilgan bilim va tarbiya kutilgan natijani bermaydi. Farzand tarbiyasiga tashqi muhitning ta'siri ham katta. Agar bola oilada o'z qiziqishlarini qondira olmasa, u buni tashqaridan izlay boshlaydi. Shu sababli ota-onalar farzandining bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganiga, kimlar bilan muloqot qilayotganiga va nimalarga qiziqayotganiga e'tibor berishlari lozim. Farzand uchun bilim olishga qulay sharoit yaratish ham ota-onaning muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishni o'rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirish, ulardan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish ota-onalar va ta'lim muassasalari zimmasidagi muhim vazifadir.

Ota-onalar bolalarda estetik didni rivojlantirish uchun ularni tabiat qo'yniga, tarixiy obidalar va muzeylarga olib borishlari, go'zallikni his etishga o'rgatishlari lozim. Bu esa ularning ma'naviy dunyosini boyitadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rlikidan foydalanish va ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bola ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, uning manfaatlari ta'minlanishi, har tomonlama kamol topishi va insoniy qadr-qimmatini hurmat qilinishi lozim. Shuningdek, ota-onalar o'z farzandlariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Farzandni tarbiyalash, ta'lim berish, parvarish qilish va himoya qilish ota-onaning nafaqat axloqiy, balki konstitutsiyaviy burchi ham hisoblanadi. Ota-onaning vazifasi – oilada avvalo moddiy va ma'naviy muhitni to'g'ri yo'lga qo'yib, farzandlarga to'g'ri tarbiya va ta'lim berish, moddiy ehtiyojlarini qondirish,

uni kasb-hunarga o‘rgatish kabi burch va mas’uliyatni o‘z ichiga oladi. Buning uchun ota-ona pedagogik bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Ota-onaning pedagogik bilimiga – farzandni tarbiyalash uchun zarur ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, huquqiy, tibbiy, psixologik bilimlar majmui kiradi.

Psixologiyada tarbiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, oila, maktab, mahalla bilan cheklanib qolmay, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye va boshqa ijtimoiy obyektlarni ham o‘z ichiga oladi. Tarbiya shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirishga, badiiy va estetik didini o‘stirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Ota-onalarning pedagogik bilimlarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan keng foydalaniladi.

Maktabda bolalar jamoaga mostlashadilar, vaqtining ma’lum bir qismini tengqurlari davrasida o‘tkazadilar. Sinfda turli oilaviy muhitda tarbiyalanayotgan o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona yoki aksincha, kelishmovchilik holatlari yuzaga kelishi mumkin. O‘qituvchi darsdan tashqari vaqtda o‘quvchilarga umumiy tarbiya qonuniyatlarini tushuntiradi, lekin tarbiyasi og‘ir yoki xulq-atvorida o‘zgarishlar kuzatilayotgan o‘quvchilar bilan ota-ona, mahalladan birlashtirilgan yetakchi va maktab mutasaddilari hamkorlikda ish olib boradilar.

**Ota-onaning farzand bilan munosabatda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:**

–pedagogik xushmuomalalik; (ota-ona bolalar bilan imkon qadar xushmuomilada bo‘lishi zarur)

–bolalarga nisbatan sezgirlik; (ota-ona farzandining xis-tuyg‘u, xatti-harakatlari, orzu, qiziqishlariga nisbatan xushyor va e’toborli bo‘lishlari kerak)

–adolatli va oqilona talabchan bo‘lish qobiliyati; (qattiqqo‘llik, talabchanlik me’yorida bo‘lsa, samara, me’yoridan o‘tsa, zulm bo‘ladi. Bolaning o‘g‘il yoki qizligi, katta yoki kichikligidan qat’iy nazarga ota-ona farzandiga teng munosabatda bo‘lishi maqsadga muvofiq)

–ziddiyatli vaziyatlardan oqilona chiqish yo‘lini topish qobiliyatini o‘zlashtirish.

(Bolalarda o‘smir yoshdagi bolalarda gormonal o‘zgarishlar natijasida jizzakilik, menini atrofida qilargaga bildirish hissi kuchli bo‘ladi. O‘zini yolg‘iz sezsa, turli zararli odat va konflikli vaziyatlarga tushadi. Mana shunday vaziyatlarda ota-ona yuzaga keladigan konfliktlarga nisbatan yechim topish mahoratiga ega bo‘lsa, kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizliklarni oldini olgan bo‘ladi) Oilada farzand tarbiyasi mashaqqatli va uzluksiz jarayon bo‘lib, bo‘lib, ota-onadan o‘z farzandlariga mehr-muhabbat, katta sabr-toqat va o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan pedagogik texnologiyalariga oid bilimlarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar bola tarbiyasining eng muhim subyektlari hisoblanadi. Ularning mehr-muhabbati, psixologik qo‘llab-quvvatlashi va tarbiyaviy mas’uliyati bolaning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning shaxsiy namunasi va farzandga bo‘lgan e’tibori kelajak avlodning ma’naviy va ruhiy jihatdan yetuk bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi va oilaviy maslahat. — Toshkent, 2019.
2. Nishonova Z.T. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2021.
3. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. — Amaldagi nashr.
5. To‘xtasinov, U. (2018). O‘zbek oilasining pedagogik qadriyatlari. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Norqulov H.D. Ota-onalarning g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishning ijtimoiypedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... dis. – Toshkent: O‘PFITI, 2007-yil. 134 bet. 4-bet.